


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON JURNALISTIKA VA OMMAVIY
KOMMUNIKATSIYALAR UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

**O‘zJOKU rektori
Sherzodxon Qudratxo‘ja**



**60320100 – JURNALISTIKA: SAN‘AT JURNALISTIKASI BAKALAVRIAT
TA‘LIM YO‘NALISHI BO‘YICHA IJODIY (KASBIY) IMTIHONLAR
DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

Toshkent – 2023

Tuzuvchilar:

Yu.Zohidova – O‘zJOKU “Xalqaro va audiovizual jurnalistika” kafedrası mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

R.Rayimjonov – Xalqaro va audiovizual jurnalistika fakulteti dekani

Taqrizchilar:

M.Mirsoatova – O‘zZMU Jurnalistika fakulteti dekani, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

G. Umarova – “O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati” gazetasi bo‘lim muharriri

Kirish

60320100 – Jurnalistika: san'at jurnalistikasi ta'lim yo'nalishida ijodiy imtihon o'tkazishdan maqsad, abituriyentda matbuot nashrlari va matbaachilik sohalari talab etadigan ijodiy qobiliyat, mustaqil fikrlash mahorati, dalillash va xulosalar chiqarish kabi sifatlarning mavjudligini hamda uning dunyoqarashi va fikrlash doirasini aniqlashdir. Ijodiy imtihon jarayonida abituriyentlarning quyidagi jihatlariga e'tibor qaratiladi:

- Ijodkorlik qobiliyati;
- Madaniyat va san'atga oid muammolarni qay darajada anglay olishi;
- OAVda madaniyat va san'at sohasida yoritilayotgan dolzarb mavzular va muammolardan xabardorligi;
- Dunyoqarashining kengligi, qiziqishlari doirasi;
- OAV faoliyatini qay darajada bilishi;
- Kasbni tanlash sabablari;
- Jurnalistika kasbiga moyilligi;
- Fikr-mulohazalarining mustaqilligi;
- Yozma va og'zaki savodxonlik darajasi;
- O'z fikrini erkin, aniq, mantiqli va izchil ifoda etish mahorati;
- Yozma va og'zaki muloqotga moyilligi.

Ijodiy imtihonning tuzilishi

Ijodiy imtihon 2 bosqichda o'tkaziladi.

Birinchi bosqich abituriyentlarning ijodiy qobiliyati va dunyoqarashini baholash bo'yicha **og'zaki suhbat** bo'lib, u quyidagi tartibda o'tkaziladi:

– abituriyentning bosma, teleradio va elektron ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan, chop etilgan jurnalistik (publitsistik) materiallari komissiya a'zolari tomonidan o'rganiladi. Maqolalarda yoritilgan mavzularning tarixi yoki dolzarbligi yuzasidan abituriyent bilan suhbat o'tkaziladi. Suhbat jarayonida maqola yoki jurnalistik material yozilishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa tahlil etiladi hamda abituriyentning dunyoqarashi, qiziqishlari, kimlar bilan suhbat o'tkazgani aniqlanadi;

– jamiyat, madaniyat, san'at va uning turli sohalarida yuz berayotgan o'zgarishlardan xabardorlik darajasini aniqlash bo'yicha savollar beriladi;

– O'zbekiston va jahonda yuz berayotgan so'nggi yangiliklar, yurtimizda amalga oshirilayotgan ishlar, islohotlar bo'yicha savollar berish orqali abituriyentning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy va boshqa sohalardagi o'zgarishlardan boxabarlik darajasi aniqlanadi;

– badiiy, publitsistik va jurnalistik ijod namunalari, ushbu sohalardagi namoyandalar, adiblar, ijodkorlar faoliyati, so'nggi davrlarda yaratilgan

adabiyotlar xususida savollar berish orqali talabgorning badiiy adabiyot, madaniyat, san'at, publitsistika hamda jurnalistika sohalaridagi bilimi baholanadi;

– suhbat davomida jurnalistika sohasiga tegishli savollar beriladi va shu tariqa abituriyentning bu sohadan xabardorlik darajasi belgilanadi. Shuningdek, abituriyentning muloqotga kirishuvchanligi, istiqbol rejaları, notiqlik qobiliyati, fikrni obrazli ifoda etish kabi fazilatları aniqlanadi.

Og'zaki suhbat davomida so'rashga tavsiya qilinadigan namunaviy savollar:

1. San'atning qaysi turlariga qiziqasiz?
2. Nega aynan san'at jurnalistikasiga topshirdingiz? Bu tanlov kimning ta'sirida bo'ldi?
3. Sizni jurnalistikada nima qiziqtiradi? Qachondan beri jurnalistika sohasiga qiziqasiz?
4. Qaysi san'at turlarini kuzatib borasiz (kino, teatr, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, musiqa, xalq amaliy san'ati, raqs va hkz)?
5. Jurnalistika sohasi boshqa sohalardan qaysi tomonlari bilan farq qiladi deb o'ylaysiz?
6. Savol berishni yoqtirasizmi? Notanish kishilar bilan muloqot qilishda qiynalmaysizmi?
7. Qaysi rejissyorlarni filmlarini sevib tomosha qilasiz?
8. San'atga doir qanday nashrlarni bilasiz?
9. Eng yaxshi ko'rgan 5 ta aktyor (aktrisa)ni sanab bering. Ular yaratgan birorta obrazni tahlil qiling.
10. Siz intervyu olishni istagan birinchi qahramoningiz kim? Unga qanday savollar bergan bo'lardingiz?
11. San'atga doir qanday ko'rsatuvlarni, davriy bosma nashrlarni bilasiz?
12. Kino va spektaklning o'xshash va farqli tomonlari nimada? Biror bir ekran (sahna) asari, uning ijodkorlari haqida gapirib bering.
13. San'at mavzularini yoritadigan jurnalist uchun eng kerakli sifatlar nimalar? U ko'rishi, tanishi, bilishi kerak bo'lgan 5 ta eng yaxshi kino, spektakl, rejissyor, aktyor, rassom, xonanda, raqqosani sanab bering.
14. Gazeta va jurnallarda, internet sahifalarida san'at mavzusiga doir materiallaringizni e'lon qilganmisiz? Materiallaringizni qanday yozgansiz, tarixini aytib bering.
15. Xalq bilan muloqot o'rnatishda jurnalistikaning o'rni qanday bo'lishi kerak?
16. San'atshunos bilan art jurnalistning o'zaro farqli va o'xshash tomonlarini qanday baholaysiz?
17. San'atni yoritishda qaysi OAV platformasidan kengroq foydalangan ma'qul (sizning fikringiz)? Gazeta, jurnal, TV, radio yoki internet saytlari?
18. San'at mavzulari kengroq yoritiladigan qaysi davriy nashrlarni bilasiz?
19. Gazeta va jurnallarda faoliyat yuritadigan jurnalistlardan kimlarni taniysiz?
20. Intervyu nima? Intervyuda kimning fikri o'rganiladi?

21. Agar Siz juda qiziq fakt topgan bo'lsangiz, lekin ushbu fakt kimningdir izzat-nafsiga tegadigan bo'lsa, u holda nima qilasiz?
22. Jurnalistikada Sizni nima ko'proq qiziqtiradi: ko'nglingizdagi gaplarni yozishmi, xalq dardini o'rganishmi yoki yaxshi oylik olishmi?
23. Sizning nazaringizda, jurnalist qanday shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi kerak?
24. Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida o'qishdan nimalarni kutayapsiz?
25. Mashhur san'at arbobi, aytaylik, madaniyat vaziridan intervyu olish imkoniyati tug'alsa, qanday 5 ta asosiy savolni bergan bo'lar edingiz?
26. Texnik jihatdan qurollangan jurnalistga kamida 3 ta narsa kerak deyilsa, nimani olgan bo'lar edingiz? Nima uchun?
27. Ommaviy axborot vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
28. Jurnalistika kasbmi, iqtidormi yoki ijodmi? Javobingizni izohlang.
29. O'zbekistonda jurnalistlar, muxbirlardan kimlarni bilasiz? Ularning ijodida, chiqishlarida nimalar e'tiboringizni tortadi?
30. Jurnalist materiali insonni e'tiborini tortishi uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
31. Siz bilgan jurnalistlar, muxbirlar ijodida, chiqishlarida nimalar sizga yoqmaydi va nima uchun?
32. Jurnalistikada qat'iyan man etiladigan amallar nima?
33. "Jurnalistni oyoqlari boqadi" iborasini izohlang?
34. O'zingizni 5 va 10 yildan keyin kim sifatida ko'rasiz?
35. Sizga biror OAVga muharrir sifatida 6 oy davomida ishlashni taklif qilishdi deylik. Qaysi turdagi va yo'nalishdagi OAV ni tanlaysiz?
36. Jurnalistikadan boshqa yana qaysi soha siz uchun qiziq?
37. Qaysi san'at turlari tasviriy san'at hisoblanmaydi?
38. "Tasviriy san'at" tushunchasi san'atning qaysi turlarini birlashtiradi?
39. "Tasviriy san'at"ning qanday turlarini bilasiz?
40. Avtportret nima?
41. Dunyoga mashhur "Tinchlik kaptari" timsoli chizmasining muallifi haqida nimalarni bilasiz?
42. Agar fotografiya san'ati uzoq vaqtdan beri mavjud bo'lsa, nima uchun unda rassomchilik san'ati ham saqlanib qolmoqda deb o'ylaysiz?
43. San'atga ta'rif bera olasizmi.
44. "Zamonaviy san'at" qachondan boshlangan?
45. San'at olami haqidagi so'nggi yangiliklarni qayerdan topsak bo'ladi?
46. Shoshmaqom haqida gapirib bering.
47. O'zbekistondagi raqs san'ati maktablarini bilasizmi.
48. Art-jurnalistika deganda nimani tushunasiz?
49. San'atga hos qandan ko'rsatuvlarni bilasiz?
50. San'at turlarini sanab bering.

Ikkinchi bosqich ijodiy insho shaklida quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

– ijodiy insho mavzulari hozirgi kun muhim ijtimoiy-siyosiy, adabiy-tarixiy, madaniy-ma'naviy, axloqiy, vatanparvarlik va boshqa dolzarb masalalariga bag'ishlanganligi hamda jurnalistik xususiyatga yo'naltirilgan va abituriyentning ijodiy imkoniyatlarini ochib berishga qaratilgan bo'lishi nazarda tutiladi va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tuziladi. Mavzular oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining raisi tomonidan tasdiqlanadi hamda muhrlangan maxsus konvertida qat'iy hisobot hujjatlari sifatida saqlanadi;

– qabul komissiyasining raisi yoki uning topshirig'i bilan rais o'rinbosari ijodiy insho boshlanishidan 20 daqiqa avval fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga ijodiy insho mavzulari solingan konvertlarni topshiradi va fan bo'yicha komissiya a'zolarini imtihon topshiruvchi guruhlariga taqsimlaydi;

– ijodiy insho o'tkazilishi uchun **3 astronomik soat** vaqt belgilanadi;

– ijodiy insho betlari muhrlangan **12 varaqli daftarga** yoziladi, qoralama uchun ham betlari muhrlangan qog'ozlar beriladi. Ijodiy insho yozilgan daftar va qog'ozlarda yozma ish muallifini bildiruvchi, shartli belgilarning qo'yilishiga yo'l qo'yilmaydi;

– ijodiy inshoning hajmi **5 betdan 10 betgacha** deb belgilanadi;

– ijodiy insho uchun belgilangan vaqt tugagandan so'ng, yozma ishlar qoralamalari bilan birga yig'ib olinadi va mas'ul kotibga yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini yozma ishlarni shifrlab, fan bo'yicha imtihon komissiyasining raisiga tekshirish uchun topshiradi;

– yozma ishlar faqat oliy ta'lim muassasasi binosida va fan bo'yicha imtihon komissiyasi a'zolari tomonidan tekshiriladi;

– tekshirilgan ijodiy insholar qo'yilgan ballari va tekshiruvchilarning imzolari bilan qabul komissiyasining mas'ul kotibi yoki uning muoviniga topshiriladi;

– mas'ul kotib yoki uning muovini insholarni deshifrovka qilib, imtihon qaydnomasiga abituriyentlarning familiyalari va olgan ballarini kiritadi;

– ijodiy inshoga quyidagi yo'nalishlardan kelib chiqib mavzular belgilanadi: ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, vatanparvarlik, milliy iftixor va sog'lom turmush tarzi.

– ijodiy imtihon natijalari ikki kundan so'ng e'lon qilinadi.

Ijodiy imtihonni baholash mezonlari

Ijodiy imtihon yagona ko'p balli baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihonda to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball miqdori – **93 ball**.

Ijodiy imtihonning birinchi bosqichi, ya'ni og'zaki suhbat jarayonidagi savol-javobni baholash uchun ijodiy imtihonga ajratilgan maksimal ballning 33,3 foizi, ya'ni 31 ball belgilanadi.

Ijodiy imtihonning ikkinchi bosqichi, ya'ni ijodiy inshoni baholash uchun imtihonga ajratilgan maksimal balldan **66,6 foizi, ya'ni 32 ball** belgilanadi.

Og'zaki suhbatni baholash mezonlari

Og'zaki suhbatga 0 – 31 ballgacha qo'yish mumkin.

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	Jurnalistika haqidagi tasavvuri yuzaki, batafsil bilimi yo'q, abituriyentning fikrlashi sayoz, bosma, teleradio, elektron OAVda e'lon qilingan materiallari yo'q, lekin jurnalist bo'lish istagi kuchli	0 – 6 ball
2.	Jurnalistika haqida bir oz tushunchasi bor, kasbga qiziqishi bir-ikki oylik emas, ayrim jurnalistlarni taniydi, bosma, teleradio va elektron OAVda e'lon qilingan 1-3 kichik hajmli material bor	7 – 13 ball
3.	Jurnalistikaga 1-2 yildan beri qiziqadi, kasb haqida tasavvuri yaxshi, bosma, teleradio va elektron OAV faoliyatini izchil ravishda kuzatib boradi, 5-7 e'lon qilgan materiallari bor, 8-10 ta jurnalistni taniydi, ularning ijodiga sharh bera oladi	14 – 19 ball
4.	Jurnalistikaga ko'p yildan beri qiziqadi, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini chuqur tushunadi, bosma, teleradio va elektron OAVni yaxshi biladi, ko'p jurnalistlarni taniydi va ularning ijodiga atroflicha baho bera oladi, 10-20 ta e'lon qilgan material bor	20 – 25 ball
5.	Jurnalistikaga bolaligidan qiziqadi va 5-6 sinfdan boshlab OAV bilan hamkorlik qiladi, tahririyatga ko'p borgan va redaksiya ishi bilan tanish, jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini va roliga chuqur tavsif bera oladi, milliy bosma OAV faoliyati haqida atroflicha tasavvuri bor, bosma, teleradio va elektron nashrlarida faoliyat yuritadigan jurnalistlarni taniydi hamda ularning ijodiga tavsif bera oladi, e'lon qilgan materiallari 20 dan ko'p	26 – 31 ball

Ijodiy inshoni baholash mezonlari: (ballar miqdori – 0 – 62 ball)

№	Ballar qo'yish mezonlari:	ballar
1.	10 tadan ortiq imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarga yo'l qo'yilgan	0 ball
2.	Ish mavzu bo'yicha yozilmagan	0 ball

3.	Mavzu sayoz ochilgan, abituriyentning fikrlashi yuzaki, jurnalistikani tushunishi chuqur emas, yozma ish mantiqan bo'sh, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 10 tagacha	1–8 ball
4.	Mavzu bir oz ochilgan, abituriyentning fikrlashi o'rtadan pastroq, jurnalistikani yaxshi tushunmaydi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 8-9 ta	9–16 ball
5.	Mavzu o'rtacha ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng emas, fikrlashi bir oz sayoz, jurnalistikaning rolini o'rtacha tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 6-7 ta	17–25 ball
6.	Mavzu o'rtadan yuqoriroq ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi torroq, lekin jurnalistikaning jamiyatdagi o'rnini tushunadi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 4-5 ta	26–33 ball
7.	Mavzu nisbatan yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi yomon emas, jurnalistikaning roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolarning umumiy soni 2-3 ta	34–42 ball
8.	Mavzu yaxshi ochilgan, abituriyentning dunyoqarashi keng, jurnalistikaning rolini yaxshi tushunadi va unga baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatosi 1 ta	43–52 ball
9.	Mavzu teran ochib berilgan, abituriyentning dunyoqarashi chuqur va atroflicha, jurnalistika roliga yaxshi baho bera oladi, imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq va uslubiy xatolar yo'q	53–62 ball

Ijodiy imtihon bosqichlarida to'plangan ballar umumlashtirilib, yagona ball sifatida qaydnomaga kiritiladi. Qaydnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, mas'ul kotib yoki uning muoviniiga takdim etiladi.

Ijodiy imtihon natijalarini apellyatsiya qilish tartibi

Ijodiy imtihon bosqichlari natijalari bo'yicha apellyatsiyaga arizalar faqat imtihon bosqichlari natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab 24 soat mobaynida qabul qilinadi.

Murojaat mazmunida faqat o'zining ijodiy ishi va ballari xususida e'tiroz bo'lsa, qabul qilinadi. Lekin boshqa abituriyentlar ishlari va ballari haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Ijodiy insho yozilgan daftar rasmiy hujjat sifatida belgilangan muddatgacha

saqlanadi. Undan shaxsiy maqsadlarda nusxa olish, uni suratga tushirish va imtihonlar o'tkazilayotgan hududdan olib ketish mumkin emas.

Apellyatsiya qilish jarayonida abituriyentga qo'shimcha savol berishga ruxsat berilmaydi.

Ijodiy imtihonda olingan bahoni o'zgartirish faqat fan bo'yicha komissiyaning roziligi bilan va faqat apellyatsiya qiluvchi abituriyent ishtirokida oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Ijodiy imtihonning og'zaki suhbat natijalari apellyatsiyada qayta ko'rib chiqilmaydi.

Ijodiy imtihon o'tkazilishiga qadar apellyatsiyaga ariza berish va uni ko'rib chiqish tartiblari abituriyentlar e'tiboriga yetkaziladi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida <https://lex.uz/docs/58410632022-yil-28-yanvar>.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. – T., "O'zbekiston", 2019.
4. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. 2021-yil 26-iyun. <https://president.uz/uz/lists/view/4454>.
5. Mirziyoyev Sh.M. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // "Xalq so'zi" gazetasi 2022-yil 27-iyun.
6. O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetini tashkil etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori.// <https://lex.uz/docs/3748563> 25.05.2018.
7. Raupova L. Nutq madaniyati. Darslik. – Toshkent.: Innovatsiya Ziyos. 2019.
8. Jumanova S. Jurnalistika (abituriyentlar uchun ijodiy imtihon qo'llanmasi) T.: "Ziyos nashr" MChJ, 2019.
9. To'xlieva N. Tahrir mahorati. – Toshkent: Bayoz, 2022.
10. Qosimova N., Xidirov Q., Safarov A., Saidov H., Ortiqova Yu., Isomiddinova M. Ixtisoslashgan jurnalistika. IX jild. – T.: O'zbekiston, 2019.
11. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati. – T.: "Fan", 2019.
12. Audiovizual jurnalistika. VI jild - Toshkent: O'zbekiston, 2019.
13. Allamberganova P. Audiovizual jurnalistika. (Telejurnalistika asoslari). O'quv qo'llanma. – Toshkent.: Universitet, 2022.
14. Хикматова М. Понятия и слово: сравнительный анализ узбекских,

русских, английских терминов и их значений в жанрах журналистики. Монография. Бухара, 2022.

15. Zohidova Y. Televideniye va shaxs: teleyangiliklarda boshlovchining o'rni (ijtimoiy vaziyat, journalist pozitsiyasi va mahorat masalalari). Monografiya. – Toshkent.: Mumtoz so'z, 2022.